

Kimyo sanoatida texnik reglamentlar va standartlarni ishlab chiqish masalasi muhokama qilindi

// 22.10.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-sanoatida-texnik-reglamentlar-va-standartlarni-ishlab->



Joriy yilning 18 oktabr kuni "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Davlatlararo standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish kengashi rahbariyati hamda kimyo tarmog'i korxonalarining mas'ul xodimlari ishtirokida Kimyo sanoatida texnik reglamentlar va standartlarni ishlab chiqish mavzusida uchrashuv tashkil etildi.



Unda kimyo sanoati sohasida standartlashtirish ishlarini takomillashtirish, milliy va xalqaro miqyosda samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar hamda sohadagi texnik reglamentlarni ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi holati muhokama qilindi. Uchrashuv sohaga oid mutaxassislar o'rtasida o'zaro muloqot shaklida o'tkazildi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tish joiz, bugungi kunda kimyo sanoatida 2 506 ta me'yoriy hujjat amalda bo'lib, ulardan 96 tasi milliy standartlar, 270 tasi xalqaro standartlarga uyg'unlashtirilgan milliy standartlar va 2 140 ta davlatlararo standartlardir.

Sohada mineral o'g'itlar xavfsizligi bo'yicha yagona talablarni belgilash hamda xalqaro andozalarga uyg'unlashtirish maqsadida "Mineral o'g'itlar xavfsizligi to'g'risida" texnik reglament ishlab chiqilgan. Bundan tashqari "Kimyoviy mahsulotlar xavfsizligi to'g'risida" texnik reglament ishlab chiqilmoqda.

Country	Количество экспертов, чел.	Размер фонда стандартов, шт.
BSU	34 674	11 871
DIN	37 000	32 767
ANSI	33 814	> 100 000
PCT	5 000	40 300

uzkiyosanoat (+99878) 140-74-26

Uchrashuv ishtirokchilari kun tartibidagi masalalar yuzasidan bir qator taklif va mulohazalarini bildirdilar.

uzkiyosanoat (+99878) 140-74-26



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati